

O‘ZBEKISTONDA ERKIN RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL JIHATLARI

Iskandarova Mohicheha Salohiddin qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Ilmiy maslahatchi: Bahriddinov Viqorjon Akbar o‘g‘li

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishi O‘zbekiston hududida raqobat muhitining tahliliga qaratilgan. Bundandan tashqari, mamlakat hududida amalga oshirilayotgan raqobat muhitini yaxshilash maqsadida joriy qilingan hyujjatlar va ular asosida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar o‘rganiladi.*

Tayanch iboralar: *raqobat, erkin raqobat, raqobat muhiti, monopoliya, monopoliyaga qarshi kurash.*

Kirish

Keyingi yillarda mamlakatimizda raqobatni rivojlantirish va monopoliyalarga qarshi kurashish, iste‘molchilarning huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda mazkur tizim faoliyatini takomillashtirish doirasida “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining nomini aniqlashtiruvchi hamda davlat yordami berilishiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ushbu qo‘mita bilan kelishishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Bundan tashqari “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish kiritilib, unga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyekt qaysi faoliyat turiga asosan tabiiy monopoliya subyektlari jumlasiga kiritilsa, o‘sha faoliyat turi uning asosiy faoliyat turi hisoblanadi.[1]

Asosiy qism

Raqobat muhitini yaratishda mahalliy mahsulotlarning ham ichki bozorda, ham tashqi bozorda yuqori raqobatbardoshligini ta‘minlash muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan va qayta ishlangan mahsulotlarning ichki va tashqi bozordagi ulushi salmoqli bo‘lsa-da, uni yanada oshirish imkoniyati mavjud. Bu ichki bozorni to‘ldirish, eksportbop mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga e‘tibor qaratishni dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Barqaror rivojlanishga erishish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ilg‘or innovatsion iqtisodiyotga ega bo‘lishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda erkin raqobat muhitini shakllantirish – iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish, monopoliyani cheklash hamda sog‘lom bozor muhitini ta‘minlash yo‘lida muhim bosqichdir. Bu jarayonning institutsional jihatlari – ya‘ni, erkin raqobatni ta‘minlovchi tashkilotlar, qonunchilik bazasi va tizimli islohotlar orqali amalga oshiriladi. O‘zbekistonda samarali raqobat muhitini yaratish uchun quyidagilar bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi taqozo etiladi:

a) iqtisodiyotda davlat monopolizmining har qanday namoyon bo‘lishini maksimal darajada bartaraf etish. Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish tizimini takomillashtirish uchun nisbatan qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan chuqur institutsional islohotlar zarur;

b) bozor sharoitida vujudga kelayotgan monopoliyalarning bozordagi o‘z ustunlik mavqiyalarini suiiste‘mol qilish imko niyatlarining oldini olish. Davlat muassasalari raqobatning rivojlanishini ta‘minlashlari lozim. Busiz samarali innovatsiyalar, past xarajatlar va narxlar, mahsulotning yuqori sifatiga erishish, boshqacha aytganda, butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mumkin emas [2].

Mamlakat hududida erkin raqobatga asoslagan muhitni tashkil qilish maqsadida bir qator qonunlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2019 yildagi PQ-4126-son “O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori imzolandi. Ushbu qo‘mita mamlakatda raqobat sharoitini rivojlantirish bilan birgalikda, monopoliyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini ham amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida” gi qonunining 9-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi PF-6019-son farmoni, hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 114-son qaroriga muvofiq respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish belgilangan edi. Ushbu huquqiy hujjat asosida qo‘mita tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi va ishlar bo‘yicha hisobot berildi:

Bugungi kunga qadar respublikamizda jami 211 ta subyektda monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy etildi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi toifalarga taqsimlanadi:

- 70 ta — tabiiy monopoliya subyektlari,
- 67 ta — tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega xo‘jalik yurituvchi subyektlar,
- 35 ta — mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari,
- 19 ta — davlat boshqaruvi organlari,
- 20 ta — davlat ishtirokidagi korxonalar.

2024-yilning I choragi davomida esa 15 ta davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida komplaens tizimi to‘liq joriy etildi. Ulardan quyidagilarni alohida qayd etish mumkin:

- “Energetika vazirligi”
- “Sog‘liqni saqlash vazirligi”
- “Sport vazirligi”
- “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi”
- “Transport nazorati inspeksiyalari”
- “Uzbekistan Helicopters” MCHJ
- “Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ
- “Xorazm shakar” MCHJ
- “Aloqabank” ATB

Shuningdek, tizim joriy etilgan 147 ta davlat organlari va xo‘jalik subyektlari tomonidan 2024-yil uchun “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan ularning ijrosi yuzasidan monitoring olib borilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoniga muvofiq, qo‘mitaning 2023-yil 8-avgustdagi 111-ICH-sonli buyrug‘i asosida “Biz sizni eshitamiz!” loyihasi doirasida tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan ochiq uchrashuvlar o‘tkazilishi belgilandi. 2023–2024-yillar uchun rejalashtirilgan ushbu uchrashuvlar haqida tadbirkorlik subyektlarini o‘z vaqtida xabardor qilish va ularning ishtirokini ta‘minlash maqsadida qo‘mitaning rasmiy veb-saytida maxsus “Biz sizni eshitamiz” sahifasi yaratildi. Unda uchrashuvlarning reja-jadvali ham e‘lon qilingan.

Ushbu jadval asosida 2024-yil 14-mart kuni Namangan viloyatida davlat xaridlari sohasida faoliyat yuritayotgan 200 nafarga yaqin byudjet tashkilotlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar vakillari ishtirokida ochiq muloqot tarzida uchrashuv tashkil etildi. Tadbir davomida mavjud muammolar va takliflar o‘rganilib, tadbirkorlik faoliyatiga to‘siq bo‘layotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

O‘tkazilgan uchrashuvlar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritilmoqda.[3]

2024-yilning 5-avgustida Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-avgust, dushanba kuni mamlakatda raqobatni rivojlantirishga oid taqdimot bilan tanishdi. Bu haqda davlat rahbarining axborot xizmati ma‘lum qildi. Unga ko‘ra, iqtisodiyotga hukumat aralashuvini qisqartirish, katta monopoliyalarni tiyib bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar raqobat muhitiga yaxshi ta‘sir qilayotgani ma‘lum qilindi.

«So‘nggi besh yilda 25 tadan ortiq tovarlar bo‘yicha raqobat muhiti yaxshilandi. 7 ta faoliyat turi bo‘yicha raqobatni cheklovchi eksklyuziv huquqlar bekor qilindi. Davlat

ishtirokidagi korxonalar 42 foizga kamayib, tadbirkorlik subyektlari soni 1,6 barobar ko'paydi», — deyiladi xabarda.

Shuningdek, sohaga oid ishlar oqimi va samaradorligini kengaytirish uchun raqobatni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda iqtisodiyotda davlatning ishtirokini qisqartirish, bozorga kirishni osonlashtirish, biznesmenlarga yaxshi imkoniyatlar yaratish uchun keyingi ishlar belgilanadi. Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri amalga oshiriladigan davlat xaridlari ko'lami qisqartirilib, davlat xaridlari raqobatli usullarga to'liq o'tkaziladi. Raqobatni cheklovchi individual xususiyatga ega davlat yordami, shu jumladan, eksklyuziv huquq, imtiyoz, preferensiya va yengilliklar bekor qilinadi. Davlat organlari axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxlarini shakllanishi zanjirining barcha bo'g'inlarini raqamli monitoring qilish yo'lga qo'yiladi. Raqobatga qarshi kelishuv va xatti-harakatlar, til biriktirish holatlari haqida ma'lumot taqdim etgan shaxslarni oshkor etmaslik va mukofotlash tizimi joriy etiladi. Joriy qilingan konsepsiya samarasida energetika, neft-gaz, suv xo'jaligi, yo'l qurilishi, temir yo'l va aeroport xizmatlari kabi bir qancha sohalarda 17 turdagi davlat monopoliyasini bosqichma-bosqich tugatish amalga oshiriladi [4].

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda erkin raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Yaqin yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, hamda "Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi" faoliyatining kuchaytirilishi raqobat siyosatining institutsional asoslarini mustahkamladi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti sharoitida adolatli raqobatni shakllantirish uchun mavjud institutsional bazani yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, yirik davlat korxonalarining bozor ustidan nazoratini cheklash, ularni xususiylashtirish jarayonlarini ochiqlik va raqobat tamoyillari asosida amalga oshirish, davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar va subsidiyalarni raqobatga zid tarzda ajratilishining oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, mahalliy ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar uchun teng sharoit yaratish, korrupsiyaga qarshi tizimlarni kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali sog'lom raqobat muhiti barpo etilishi mumkin. Raqobat madaniyatini oshirish, iste'molchilar huquqlarini kengroq targ'ib qilish hamda tadbirkorlar o'rtasida axloqiy raqobat tamoyillarini mustahkamlash orqali iqtisodiy islohotlar samarasini yanada oshirish mumkin. Shu jihatdan, davlat institutlari, fuqarolik jamiyati va ilmiy doiralar o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish O'zbekistonning ochiq va raqobatbardosh iqtisodiyot sari harakatini qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘RQ-954-son 04.09.2024. <https://lex.uz/uz/docs/-7091636>
2. Azimova Tamara Abrorovna, Shokirov Humoyiddin Baxriddin o‘g‘li , Erkinov Bobur Botirali o‘g‘li, Toshmirzayev Nodirbek Odilovich.” O‘ZBEKISTONDA RAQOBATCHILIK MUHITINI VUJUDGA KELISHI VA MONOPOLIYAGA QARSHI QONUNCHILIK”. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 13-SON. 20.11.2022. 775-779-betlar.
3. <https://raqobat.gov.uz/uz/faoliyat/monopoliyaga-qarshi-komplayens/>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/05/competition-concept/>